



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI VA
TALABALARDA KREATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMLARI**

Yuldasheva Malohat Erkinovna

Qo'qon DU v.b. dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

malohatxonyuldasheva82@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni shakllantirish hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish ko'nikmalarini tarkib toptirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, kreativ kompetensiyaning mazmuni, uni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlari yoritiladi. Maqolada forsait texnologiyalari, interaktiv metodlar hamda axborot-ta'lim muhiti orqali talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *kreativ yondashuv, kreativ kompetensiya, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, forsait texnologiyalari, ta'lim sifati, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axborot-ta'lim muhiti*

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilik yaratish va muammolarga noan'anaviy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda. Bu esa kreativ yondashuv asosida o'qitish zaruratini yuzaga keltiradi. Kreativ yondashuv nafaqat o'quvchining bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki ularning shaxsiy salohiyatini ochish, yangilikka intilishini rag'batlantiradi. Kreativ o'qitishda kreativ ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha kreativ ma'lumotlardan foydalaniladi. Ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni echish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan o'qitilishni, amalga oshiriladi. Talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishning axborot-didaktik ta'minoti axborot-ta'lim muhitini shakllantirish, modellashtirish kabi funksiyalari orqali andragogik va shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar sinteziasosida mazmunan rivojlantirilgan; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosida takomillashtirishning (ikki bosqichli ekspert so'rovlari), SWOT-tahlili, aqliy hujum, ssenariy yaratish, texnologik yo'lxaritalari, o'zaro ta'sirni tahlil qilish kabi modellarini umumlashtirish orqali oliy ta'lim tizimi kadrlarini malaka darajasini oshirish maqsadlilik, ochiqlik, faoliyatlilik,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



insonparvarlik, optimallik tamoyillar asosida modellashtirilgan; talabalarning kreativ kompetensiyalarini forsait texnologiyalar asosidatakomillashtirishning sohadagi umumiy muammolarni tizimli muhokama qilishi uchun gorizontal tarmoqlar, platformalarni shakllantirishda asosiy samaradorligini tarmoqli modeliga asoslangan metodik modeli tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va androgogik yondashuvlar hamda maqsadli, mazmunli, jarayoniy va tashxislovchi natijaviy komponentlar yaxlitligida ishlab chiqilgan; forsait tadqiqotlarida rejalashtirilgan va tashkil etilishilozim bo'lgan tizimli jarayon sifatida va o'zaro bog'liq vazifalar to'plami hamda g'oyalarni shakllantirishdagi o'zaro loyihalar ketma-ketligi rivojlantirish metodikasi tarmoqli masofaviy o'qitishning konseptual, texnologik, baholash-nazorat kabi funksional xususiyatlarini tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Ijodiy faoliyatni o'qituvchi va o'quvchilarning bu jarayonga psixologik jihatdan yetarlicha tayyor emasliklari murakkablashtiradi. Muntazam ravishda muayyan usul, shakl, vositalarga tayanib qolish - yangi vaziyatlarga moslasha olmaslik, kutilmagan vaziyatlarda ish yurita olmaslikka olib keladi. Bu psixologik holat sifatida turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, jumladan, o'zgaralar fikr va mulohazalarini umuman qabul qilmaslik; umumiy qabul qilingan nuqtai nazardan qat'iy himoyalalanish; yangi mazmun va vositalarga nisbatan eski usullarni qo'llash; yangi usullarda eski usullarning saqlanib qolishi; umuman yangi masalani yechishda an'anaviy usullarni qo'llash kabilar.

O'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi - o'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashtirishdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi - o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi.

Kreativ kompetentlik o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini mustahkamligi va mukammalligini ta'minlash, ularda faol va mustaqil fikrlovchi shaxs xislatlarini shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat turi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa bo'lajak mutaxassislarning fan asoslarini o'zlashtirishida, keyinchalik bu jarayonga bevosita rahbarlikni amalga oshirishda o'quvchilarda kreativ kompetentlikka asoslangan yondoshuvlarni joriy etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi shaxsiga xos bo'lgan kreativ kompetentlik bilim, ko'nikma va malakalari tushunchalarini tadqiqot nuqtai nazaridan aniqlashtirib oldik. Jumladan, kreativ kompetentlik bilimlari - yangi yechim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan.

Fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kreativ kompetentlik asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ishlab chiqarish va soha texnologiyalarini yangilanib borish mexanizmlarini o'zlashtirish, o'zining kelgusi faoliyati dinamikasini tasavvur qilish, tadbqiqiy bilimlarni o'zlashtirish ahamiyatini anglash, o'zining keyingi faoliyati yo'nalishini aniqlashtirish, faol amaliy ish olib borish tajribasini egallash hamda ilmiy axborotlar bilan



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



ishlash malakasini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi. Pedagog o'quvchilar bilan o'zaro muloqoti jarayonida albatta ularning qadriyatlarini tizimini, o'zini o'quvchilarda-ijodiy rivojlantirishga intiluvchanligi hamda onglilik darajasini e'tiborga olishi lozim. Inson yuksak qadriyatlar hamda g'oyalarga asoslanmas ekan, shaxsiy sifatleri hamda o'quvchilarda ijodkorlik mahoratini rivojlantirish jarayonlari ahamiyatini anglab yetmaydi, oqibatda pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi ijodkorligi to'laqonli amalga oshmasligi mumkin. Kreativ yondashuv asosida o'qitish – bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismidir. U o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga, yangilik yaratishga o'rgatadi. O'qituvchi esa bu jarayonda ijodkor rahbar, motivator va ilhom manbai sifatida ishtirok etadi. Shunday yondashuv ta'lim sifati, o'quvchilar natijalari va hayotga tayyorlik darajasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovastion ta'lim texnologiyalari – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015-yil. 81-b.
2. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004-yil.
3. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. "– T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013-yil.
4. M.X.To'xtaxodjaeva va b. Prof. M.X.To'xtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika nazariyasi / OTM uchun darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010-yil. – 136-140-b.